

MUSTAQILLIK YILLARIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Otaqulova Nilufar

Shahrisabz Davlat Pedagogika Insitituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs Bakalavr talabasi

Shodiyeva Guzal Baxtiyorovna

Chet tillari amaliyoti kafedrası Tadqiqot maslahatchisi

**ANNOTATSIYA:** Mustaqillik yillarida davlat boshqaruv tizimida bir qancha islohotlar amalga oshirildi va bu islohotlarning barchasi O'zbekistonning barqaror rivojlanishi, jamiyatda adolat va ochiqlikni ta'minlash, shuningdek, xalq farovonligini oshirishga qaratilgan edi. Ushbu maqolada davlat boshqaruv tizimida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda qanday islohotlar olib borilganini va bu aholiga qanday erkinlik va qulayliklar berilganligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, fuqarolik prinsplari, harakatlar strategiyasi, davlat va jamiyat, qonun, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, xavfsizlik, yangi taraqqiyot.

**АННОТАЦИЯ:** В период независимости было проведено много реформ в системе управления страной, и эти реформы были направлены на ускорение развития Узбекистана, обеспечение справедливости и процветания в обществе и обеспечение благосостояния народа. Какие реформы были проведены в плане государственного управления, социально-экономического развития и обеспечения прав и свобод общества и будут рассмотрены, как это дало удобства населению.

**Ключевые слова:** Конституция, принципы гражданства, стратегия действий, государство и общество, право, экономика, социальная сфера, безопасность, новое развитие.

**ABSTRACT:** During the period of independence many reforms were implement in the management system of country and these reforms were designed at increasing the development of Uzbekistan providing justice and prosperity in society and ensuring the well-being of the people. What reforms have been performed in terms of state management socio-economic development and ensuring the rights and freedoms of society and will be considered it gave how comforts to population.

**Keywords:** Constitution, principles of citizenship, action strategy, state and society, law, economy, social sphere, security, new development.

Dastavval, Mustaqillik Deklaratsiyasi 1990-yil 20-iyun kunida O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 2-sessiyasida qabul qilindi. Bu O'zbekistonning mustaqillikka erishishida muhim qadam bo'ldi. O'zbekistonning o'z taqdirini o'zi belgilashi, erkin taffakkur asosida yashash, fikrlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish bilan izohlanadi. Mustaqillik deklaratsiyasida O'zbekistonning hududi asrlar davomida shakllangan davlatchilik, ilm-fan va ma'daniy taraqqiyot borasidagi boy tajribalari o'z aksini topgan.[1]

Aslida, mustaqillik – bu davlatning o'z siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini mustaqil ravishda boshqarish, tashqi kuchlarning aralashuvisiz qarorlar qabul qilish huqugiga ega bo'lishdir. Mustaqillik xalqning erkinligi, o'z taqdirini o'zi belgilashi va milliy manfaatlarini himoya qilishda asosiy mezondir. Bunday yuksak huquqga O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda erishdi va 1-sentabrni

Mustaqillik kuni deb e'lon qildi. Islom Karimov bu hodisani "ming yillik orzularimizning ro'yobi" deb ta'riflab, mustaqillikni xalqimizning eng ulug' va bebaho ne'mati deb atagan.[2] Uning so'zlariga ko'ra, mustaqillik – bu nafaqat siyosiy erkinlik, balki milliy tiklanish, xalqning o'zligini anglash va yangi, taraqqiy etgan davlat barpo etish imkoniyatidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo'ldi. Negaki qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Qonunning ustunvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy – siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir.[3] Shu boisdan, 1992-yil 8-dekabrda Konstitutsiya qabul qilindi va unda belgilangan boshqaruv tamoyili O'zbekiston va uning xalqi uchun mustaqillikdan keyin tashlangan birinchi qadam bo'ldi, jumladan Davlat ramzlaridan biri hisoblangan bayroq 1991-yil 18-noyabrda qabul qilindi va 407 XXI – sonli qonun bilan tasqidladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbi esa, 1992-yil 2-iyunda Oliy kengashning X sessiyasida qabul qilindi. O'zbekiston davlat Madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilindi va XI sessiyasida tasdiqlandi. Shu bilan birga Qonunchilik palatasi ham rivojlandi ya'ni 2005-yil 17-20-yanvarda Oliy Majlis Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi va Oliy Majlis ikki palatadan (quyi palata) va Senatdan (yuqori palatadan) iborat qilib shakllantirildi.

Konstitutsiyada viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar.[4] deb belgilab qo'yildi.

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari mavjud va ular quyidagilardan iborat qilib belgilab qo'yilgan:

- davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;
- qonuniylik;
- adolatlilik;
- xalqqa xizmat qilish;
- davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida ma'sulligi;
- inson huquqlari; erkinliklari va qonunuiy manfaatlarning ustunvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- xolislik, professionallik va kompetentlik;
- davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi;
- davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi;[5]

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql - idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.[6] Shu sababdan ham, Islom Karimov mustaqillikdan so'ng barcha sohaga birdek ahamiyat qaratdi. I.Karimov boshqaruvi davrida ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Negaki, Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.[5] Shundan kelib chiqib, 1997-yil qabul qilingan "ta'lim to'g'risidagi" qonuni va "Kadrlar tayyorlash miliy dasturi" asosida ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari tizimi joriy etilib, yoshlarga sifatli va zamonaviy ta'lim olish imkoniyatlari yaratildi. Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda esa, turli sport inshootlari qurilib, ommaviy sport tadbirlari yo'lga qo'yildi. Mustaqillikning ilk yillarida esa o'tgan alloma va

buyuk shaxslar xotirasiga atab 1991-yil “Alisher Navoiy” yili, 1994-yil “Mirzo Ulug’bek” yili , 1995-yil “Ibn Sino” yili, 1996-yil “Amir Temur” yili deb e’lon qilindi. Shundan so’ng, har bir shaxsga, oilaga, butun bir xalqqa e’tibor qaratilgan holda 1998-yil “Oila” yili , 1999-yil “Ayollar” yili, 2001-yil “Onalar va Bolalar ” yili, 2003-yil “Obod mahalla” yili, 2007-yil “Ijtimoiy himoya” yili, 2008-yil “Yoshlar” yili, 2011-yil “Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik” yili, 2016-yili “Sog’lom ona va bola” yili deb e’lon qilindi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlarning pirovar maqsadi - odamlarimizning ana shunday orzu-umidalarini ro’yobga chiqarish, xalqimizga har tomonlama munosib turmush sharoiti yaratib berishdan iborat ekani haqida gapirishga hojat yo’q deb o’ylayman. Milliy g’oyalarning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik kabi tamolillarning ma’no mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ta’lim tarbiya ishlarini markaziga qo’yish, ularni yanggi bosqichga ko’tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.[6] Bu maqsadlardan kelib chiqib aytish joizki, hozirgi kunda mustaqillik davrida, davlat boshqaruv tizimini isloh qilish buyicha o’ylangan maqsadlar o’z natijasini berdi va berib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlarimiz bu sohada yetakchilik qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ijtimoiy iqtisodiy matnlar tarjimasining pranmalivistik xususiyatlari [Matn]: Monografiya / G.B. Shodiyeva – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 86 b.
2. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida I.A.Karimov. – T.: <<O’zbekiston>> 2011. – 432 b.
- 3 Islom Karimov. O’zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-jild. – T.: <<O’zbekiston>> nashriyat, 1996-yil. 319-bet.
4. (1-moddaning birinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O’R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)
5. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son;21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son)
6. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. I.Karimov. – T.;<<Ma’naviyat>>, 2016. - 176 b.